

MARKAZIY OSIYODA AMALGA OSHIRILGAN ILK QUR'ON NASHRLARI

Muslima Niyozova

*Toshkent shahri O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi
Islomshunoslik fakulteti "Islomshunoslik" yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Hozirda O'zbekistonda Qur'oni karimni ilmiy jihatdan o'rganish keng yo'lga qo'yilgan. Qur'oni karim ilmiy ravishda o'rganilar ekan, uning ma'nolarini chuqurroq tushunishda unga taalluqli bilimlarni bilish ham muhim hisoblanadi. Jumladan, Qur'oni karim qissalari, unda kelgan ilohiy mo'jizalar, undagi ayrim suralar va oyatlar fazilati, oyatlarning nozil bo'lish sabablari hamda Qur'oni karimga tafsir yozgan olimlar, mufassirlar hayoti va ijodi, tafsir yo'nalishlariga oid tadqiqotlar, mus'haf hamda Qur'on nusxalari tarixiga bag'ishlangan asarlar ham chop qilinib, keng xalq ommasiga taqdim etib kelinmoqda.

Dinyi-ma'rifiy sohaning rivoj topishida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ilk Qur'on nashrlarining ahamiyati ham katta.

Kalit so'zlar: Movarounnahr, Qur'oni karimning toshbosma nusxalari, Usmon rasmi, Abdurahmoniy, Abdumalikiy, Abdurahimiyy, Qozonbosma.

XX asr boshlarigacha qo'lda ko'chirish davom etib tursa-da, bosma kitoblar astasekin qo'lyozmalar o'rnini egallay boshladi. Natijada, qo'lyozma kitoblar ehtiyoq qilinib, ularning o'rniga bosma nashrlar keng tarqaldi. O'zR FASHI fondida Qur'oni karim toshbosmalarining jami 100 dan ortiq nusxasi saqlanadi⁴.

Movarounnahr o'lkasida kitob chop etish yo'lga qo'yilganidan keyin xattotlar, ayniqsa, kotiblar mehnatiga ehtiyoj avvalgiga nisbatan ancha kamaydi. Ularning ba'zilari o'z faoliyatlarini matbaalar huzurida kitoblarni toshbosma uchun tayyorlab beruvchi vazi fasiga o'zgartirdilar. Ayrimlari o'z an'analarini davom ettirib, asosan buyurtma va hadyalar uchun matn ko'chirish ishlarini davom ettirdilar.

O'zR FASHI fondida saqlanayotgan Qur'oni karimning toshbosma nusxalari asosan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida chop etilgan. Ular orasida "O'rta Osiyo Qozog'iston musulmonlari diniy nazorati" matbaasida chop etilgan nusxalar ko'pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, fondda Qur'on qo'lyozmalarining Qozon, Qohira, Misr, Istanbul, Damashq, Bombey, Kashmir, Kuvayt va boshqa bir qator o'lkalarda nashrdan chiqqan nusxalari ham mavjud. Shuni alo hida qayd etish lozimki, Qur'on toshbosma nusxa larining Abdurahimiyy Qur'on (Torobiyy Buxoriy) – Buxoro nashri, Abdulvohidiy Qur'on – Toshkent nashri, Abdurahmoniy Qur'on – Turkiya nashri, Abdulmalikiy Qur'oni – Turkiya yoki Misr nashrlari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Qori Abdurahmon ko'chirgan yoki homiylik qilgan Qur'oni karim hazrati Usmon mus'hafiga muvofiq, hijriy 1287-yili, ya'ni milodiy 1870-yil chop etilgan. Sura nomi va necha oyatdan iborat ekani jadval ichida

⁴ Qur'on va o'zbek adabiyoti. Hamidulla Karamotov. – Toshkent: O'zR FA "Fan" nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993. – B. 13-14.

berilgan. Kitob so'ngida ikki muhri mavjud bo'lib, ularga hijriy 1288 (milodiy 1871) yil sanasi qo'yilgan.

O'tgan asrning 80-yillaridan madaniy (Madinada nashr etilayotgan) Qur'on ko'p adadda nashr qilinib, islom dunyosida keng tarqalgunga qadar, Movarounnahrlik qorilar Qur'oni karimning "Abdurahmoniy", "Abdumalikiy", "Abdurahimiy" hamda "Qozonbosma" nusxalaridan foydalanishgan. Movarounnahr qorilari o'rtasida mashhur bo'lgan "Abdurahmoniy" Qur'on Madinada nashr etiladigan "Madaniy" Qur'ondan bir necha xususiyatlari bilan farq qiladi. Jumladan: madaniy Qur'onda "Basmala" (Bismillahir Rahmonir Rahim) "Fotiha" surasining birinchi oyati sifatida ko'rsatilgan bo'lsa, Abdurahmoniy Qur'onda esa, birinchi oyat deb keltirilmagan. Zero, "Bismillahir Rahmonir Rahim" jumlesi hanafiy mazhabiga ko'ra, "Fotiha" sura sining birinchi oyati hisoblanmaydi, balki "Naml" surasining 30-oyati tarkibida kelgan bir jumla bo'lib, u suralarni bir-biridan ajratib turish uchun suralarning boshiga tabarrukona yozib kelingan.

Har bir varaqda poygir (kitobning varaqlari yo'qolib ketmasligi va ularning ketma-ketligini saqlash uchun avvalgi sahifaning pastki chap burchagiga keyingi sahifadagi birinchi so'z) yozilgan. Har bir porani boshlab beruvchi oyatning birinchi qatori alohida jadvalga olingan. Shuningdek, oyatlardagi vaqf belgilari ham ushbu ikki mus'hafda bir biridan biroz farq qiladi.

Shuningdek XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda Qur'on nashriga katta e'tibor qaratilgan. Ilm-ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lgan Buxoroda kitoblarga qiziqish yuqori bo'lgani sabab, aynan Qur'oni karimning ilk nashrlari ham Buxoro Xiva va Samarqandda amalga oshirilgan. 1901-yil Kogonda "Baranovskiy toshbosmasi" tashkil topgan. Bu litografiyani 1903-yilda O. Levin, 1904-1913 yillari Gaysinskiy va Bendeskiy, 1913 yildan boshlab matbaa xususiylashtirilgunga qadar, yana Levin boshqargan⁵.

Navbatdagi nusxa ham Istanbul qo'lyozmasi asosida Buxoroda hijriy 1334-yil "Levin" matbaasida toshbosma usulda chop etilgan. Nusxa Qur'oni karim-ning husni xatda ko'chirilgan qo'lyozmasidan foydalanib ishlangan. Kitob Sharqshunoslik instituti fondining "Hamid Sulaymon" bo'limiga tegishli. Muqova ta'mir ko'rib, uning ustki qismiga ko'k matodan jild yasalgan. Sura nomlari qizil siyoh bilan jadval ichiga olingan. Oyatlar orasi sariq dumaloq belgi bilan ajratilgan. Ayrim tajvidga oid qoidalar matn ichida qizil siyoh bilan berib borilgan. Barcha sahifalarga ham raqam ham poygir qo'yilgan. Unda "Ankabut" surasining "Tilkal amsalu nazribuh..." oyatidan so'ngi qismigacha, shuningdek, "Rum" va "Luqmon" suralari to'liq tushirilgan. Lekin, ayni o'sha yerlar Qur'onning "Abdurahmoniy" nusxasi sahifalari bilan to'ldirib ta'mir etilgan. Bu to'ldirish uchun xizmat qilgan nusxa jiddiy kamchiliklarga ega bo'lgan. Ta'mirlovchi uni Qur'on nusxalarining tushirilga sahifalarini to'ldirishga maxsus ajratib qo'yan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Bundan ta'mirlovchi mutaxassis kitobning har bir sahifalarini sinchkovlik qo'ldan o'tkazgani ma'lum bo'ladi. Yana shunday ta'mir holatini kitob boshida ham uchratish mumkin. Ya'ni "Abdurahmoniy" nusxada "Fotiha" surasi tushirilgan va bu kamchilik "Qozon bosma"

⁵ Asrdan oshgan ziyo maskanlari. A.H. Boboxonov. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 102-108

ko‘rinishidagi sahifani o‘sha betga yelimlash bilan to‘liq holatga keltirilgan. Yana bir toshbosma hazrati Usmon uslubiga muvofiq, 1287-yil chop etilgan bo‘lib, sura nomi va uning necha oyat-dan iborat ekani jadval ichida berilgan. Kitob nashriga Nu’mon Muhammad Toshqandiy xomiylik qilgan. Kitob so‘ngida ikki muhri mavjud bo‘lib, ularga hijriy 1288-yil sanasi qo‘yilgan⁶.

Turkiston o‘lkasida kitobat nashri paydo bo‘lganidan keyin xattotlar ayniqsa, kotiblar ishi avvalgiga nisbatan ancha kamaygani haqida aytib o‘tildi. Shunday qilib, ularning ba‘zilari o‘z faoliyatlarini matbaalar huzurida kitoblarni toshbosma uchun husnixatda ko‘chirib, tayyorlab beruvchi shaxslarga aylandi. Ayrimlari o‘z an‘analarini davom ettirib, asosan buyurtma va hadyalar uchun tayyorlanadigan matnlarni ko‘chirish ishlarida davom etdilar. Nashr imkoniyatlarining kengayib borishi va dizayn takomillashib borishi natijasida qo‘lyozmalarga bo‘lgan talab ham o‘z-o‘zidan kamayib borishi kuzatildi. Bunday toshbosma Qur‘on nusxalarini hozirda shaxsiy jamg‘arma va Sharq manbalari saqlanuvchi fondlarda uchratish mumkin. Birgina O‘zR FASHI fondida Qur‘oni karimning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarida chop etilgan qator toshbosma nusxalari mavjud.

Mustaqillikning ilk yillarida esa Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning tashabbuslari bilan “Movarounnahr” nashriyotida Abdurahmoniy mus’hof nashrdan chiqqan. Avval 30 ming nusxada, keyin 50 ming nusxada chop etilgan. Biroq shundan keyin bu borada yangi qadam tashlanmay, to‘xtab qolingan.

Bugunga kelib muhtaram Prezident Sh. M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan mus’hof nashri avvalgidan tubdan farq qiladigan yuqori ilmiy saviyada, jahon andozalariga javob beradigan, mus’hof nashri borasida ulamolar qo‘ygan talablarga to‘la muvofiq ravishda “Hilol nashr” nashriyotida amalga oshirilmoqda. Bu mus’hof 2018-yildan boshlab Misr Arab Respublikasidagi “Dor-us-Salom” nashriyoti bilan shartnomaga asosida, O‘zbekiston diniy idorasini bilan hamkorlikda nashr etilmoqda⁷.

Shu davr mobaynida 75 ming nusxadagi mus’hof o‘quvchilarga yetkazib berilgan. Shulardan dastlabki 60 mingtasi “Dor-us-Salom” nashriyotining rasmiy ruxsati va asliy nusxasi asosida O‘zbekiston musulmonlari idorasini bilan hamkorlikda nashrga tayyorlangan. Qolgan 15 mingtasi esa “Dor-ul-G‘avsoniy” nashriyotining rasmiy ruxsati va asliy nusxasi asosida tayyorlab chop etilgan.

2020-yilning oktyabr oyida “Hilol nashr” nashriyoti va “Dor-ul-Ma’rifa” o‘rtasida tajvidli mus’hofning asl nusxasini nashr etish bo‘yicha shartnomaga imzolangan.⁸

“Ta‘kidlash lozimki, bu mus’hof nashri ustoz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (r.a.) ning eng eng orzularidan biri edi. U kishi hayotlik chog‘larida Qur‘onga alohida e’tibor bergen va muhabbat qo‘ygan. Muftiylik lavozimida ishlagan kezlarining dastlabki kunlaridayoq O‘zbekiston xalqiga Madinai Munawvaradan 1 million dona mus’hof olib keltirgan. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lmagan, oson kechmagan, kamiga turli ta’nalar bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, olim xizmatdan to‘xtamasdan, o‘zbek xalqini mana shu mus’hof, Qur‘oni

⁶ O‘zbekiston Ulamolari. H. Yo‘ldoshxo‘jayev, I. Qayumova. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – B. 51.

⁷ Qarang: <https://kun.uz/uz/news/2018/01/07/uzbekistonda-kuroni-karim-cop-etilaetgan-nasrietdan-videoreportaz>

⁸ Qarang: <https://hilolnashr.uz/quroni-karim-dorul-marifa>

karim bilan ta'minlash payida bo'lgan. Undan keyin ustoz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (r.a.) "Tafsiri Hilol" ni yozgan. Bu ham Qur'onga bo'lgan muhabbatlari natijasidir", – deydi "Islom ota" jome' masjidi imom noibi, O'zbekiston Qur'on musobaqasi hay'at raisining o'rinnbosari Hasanxon Yahyo Abdulmajid.

Bugun O'zbekistonda nashr etilayotgan mus'haf nashri alohida ahamiyat kasb etgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (r.a.) mus'haf nashriga ruxsat olish uchun hayotlik chog'ida kerakli choralarни ko'rgan. Hozirda qilinayotgan nashrlar ustozning sa'y-harakatlari mahsuli deyilsa yanglish bo'lmaydi.

Mus'hafalarning so'ngida odatda uning istilohlari haqida so'z boradi. "Falon belgi buni anglatadi, bu qoida mana bu suratda ifodalangan", degan izohlar bo'ladi. U izohlar odatda arab tilida yoziladi. Ushbu izohlar o'zbek o'quvchisiga oson va tushunarli bo'lishi uchun o'zbek tiliga tarjima qilingan va u mus'haf so'ngida ilova qilingan.

Xulosa qilib aytish joizki, Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ilk Qur'on nashrlari o'sha davr ehtiyoji sabab chop etilgan bo'lib, u bugungi kunda Markaziy Osiyoda qilinayotgan Qur'on nashrlarining ilk poydevori hisoblanadi.

Qur'oni karimning hozirgi hamkorlikda amalga oshirib kelinayotgan nashri hamda o'zbek tilida bir necha ma'nolar tarjimasи va tafsir kitoblarining chop etilishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan diniy-ma'rifiy sohalardagi islohotlardan darak beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qur'on va o'zbek adabiyoti. Hamidulla Karamotov. – Toshkent: O'zR FA "Fan" nashriyot-matbaa birlashmasi, 1993. – B. 13-14.
2. O'zbekiston Ulamolari. H. Yo'ldoshxo'jayev, I. Qayumova. – Toshkent: "Movarounnahr" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2015. – B. 51.
3. Asrdan oshgan ziyo maskanlari. A.H. Boboxonov. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 102-108.
4. Qarang: <https://hilolnashr.uz/quroni-karim-dorul-marifa>
5. Qarang: <https://kun.uz/uz/news/2018/01/07/uzbekistonda-kuroni-karim-cop-etilaetgan-nasrietdan-videoreportaz>